

COLLECTION OF THE PAINTINGS COLLECTION OF THE STATE MUSEUM OF CULTURE AND HISTORY OF SYRDARYA REGION

Professor of the Department of Museology
of the National Institute of Art and Design
named after Kamoliddin Behzod
PhD F.N.Turgunova

Annotation

This article analyzes the history of the formation of the painting collection preserved in the Museum of History and Culture of the Syrdarya region. The study substantiates that the foundation of this collection was the fund of the former Syrdarya Regional Art Gallery, and that the works collected, acquired, and received as donations during its period of activity were subsequently transferred to the museum collection. The article also highlights various stages of the gallery's activity, the processes of collection enrichment, the organization of exhibitions and excursions, as well as the state of scientific documentation of the museum holdings. Special attention is given to issues related to the preservation, registration, and scholarly study of the regional heritage of fine arts, along with an analysis of existing problems and possible ways to address them.

Keywords: *painting, exhibition, collection, guided tour, color palette, inventory, accession book.*

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyida saqlanayotgan rangtasvir kolleksiyasining shakllanish tarixi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ushbu kolleksiyaning asosini sobiq Sirdaryo viloyati Rasmlar galereyasi fondi tashkil etgani, galereya faoliyati davomida yig'ilgan, xarid qilingan hamda sovg'a tariqasida qabul qilingan asarlar keyinchalik muzey fondiga o'tkazilgani asoslab beriladi. Shuningdek, galereya faoliyatining turli bosqichlari, fondni boyitish jarayonlari, ko'rgazma va ekskursiya ishlari hamda ilmiy fond hujjatlari yuritilishidagi holatlar yoritiladi. Maqolada hududiy tasviriy san'at merosini saqlash, hisobga olish va ilmiy o'rganish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *rangtasvir, ekspozitsiya, fond, ekskursiya, rang gammasi, kolleksiya, inventor, kirib kitobi.*

Аннотация

В данной статье анализируется история формирования коллекции живописи, хранящейся в музее истории и культуры Сырдарьинской области. В ходе исследования обосновывается, что основой данной коллекции послужил фонд бывшей Сырдарьинской областной картинной галереи, а произведения, собранные, приобретённые и принятые в дар в период её деятельности, впоследствии были переданы в музейный фонд. Также освещаются различные этапы деятельности галереи, процессы пополнения фонда, организация выставок и экскурсий, а также состояние ведения научной фондовой документации. В статье особое внимание уделяется вопросам сохранения, учета и научного изучения регионального наследия изобразительного искусства, а также анализируются существующие проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: *живопись, экспозиция, фонд, экскурсия, цветовая гамма, коллекция, инвентарь, книга поступлений.*

Annotation

This article analyzes the history of the formation of the painting collection preserved in the Museum of History and Culture of the Syrdarya region. The study substantiates that the foundation of this collection was the fund of the former Syrdarya Regional Art Gallery, and that the works collected, acquired, and received as donations during its period of activity were

subsequently transferred to the museum collection. The article also highlights various stages of the gallery's activity, the processes of collection enrichment, the organization of exhibitions and excursions, as well as the state of scientific documentation of the museum holdings. Special attention is given to issues related to the preservation, registration, and scholarly study of the regional heritage of fine arts, along with an analysis of existing problems and possible ways to address them.

Keywords: *painting, exhibition, collection, guided tour, color palette, inventory, accession book.*

Sirdaryo viloyati madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan tasviriy san‘at muassasalaridan biri — Suratlar galereyasi faoliyati bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Mazkur galereyada jamlangan noyob rangtasvir asarlari 2018-yilda galereya yopilgach, Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyi fondidan munosib o‘rin egallab, madaniy meros sifatida saqlanmoqda. Ushbu holat hududiy san‘at rivojini o‘rganish va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Suratlar galereyasi 1981-yilda 392-P farmon asosida “Yashil teatr” binosida tashkil etilib, Sirdaryo viloyati rasmlar galereyasi negizida faoliyat boshlagan. Yillar davomida galereya fondi turli tashkilotlar va muzeylardan sovg‘a qilingan hamda xarid qilingan asarlar hisobiga boyib borgan. Dastlabki fondni I. Rubin, Kuznetsov, X. Pashkovskoy, K. Nabiev, V. Kochetkova kabi rassomlarning 58 ta asari tashkil etgan. Keyingi yillarda galereyada turli mavzularda 30 dan ortiq ko‘rgazmalar tashkil etilib, ular “Urush qahramonlari”, “Butun dunyo ayollari”, “Xalqaro muzeylar kuni”, “Benkov ijodi”, “E. Moisenkoning 70 yillik yubileyi” kabi yo‘nalishlarni qamrab olgan.

1996-yilda galereyaga tashrif buyuruvchilar soni nisbatan kam — 70 nafarni tashkil etgan bo‘lsa-da, shu yili Respublika badiiy ko‘rgazmalar direksiyasi bilan hamkorlikda 5 ta ko‘rgazma o‘tkazilgan. 2001-yilda esa O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligi munosabati bilan “Istiqlol jilolari” nomli ko‘chma ko‘rgazma tashkil etilib, unda taniqli rassomlar va iste’dodli yoshlarning asarlari namoyish etilgan. Ushbu ko‘rgazma doirasida 20 dan ortiq rangtasvir asarlari taqdim etilib, 2000 dan ortiq tashrifchilar uchun 50 dan ziyod ekskursiyalar o‘tkazilgan.

Shuningdek, “Rassom bolalar” nomli ko‘rgazmada 35 dan ortiq asar namoyish etilib, keng jamoatchilikni jalb qilgan bo‘lsa, “Inson. Yer. Koinot” mavzusidagi ko‘rgazma avgust–oktabr oylarida tashkil etilib, 25 ta rangtasvir asari asosida 120 dan ortiq ekskursiyalar o‘tkazilgan. Umuman olganda, Suratlar galereyasi faoliyati hududiy tasviriy san‘at rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan bo‘lib, uning boy fondi bugungi kunda muzey tizimi orqali saqlanib, ilmiy va madaniy jihatdan o‘rganilmoqda.

1986-yilning eng katta ko‘rgazmalaridan biri bu xalqaro Toshkent rassomlari ijodi to‘g‘risida bo‘lib, oktabr oyidan to 15-dekabrga qadar tashkil etilgan. Ekspozitsiyaga 35 dan ortiq akvarel ishlari, 80 dan ortiq rangtasvir asarlari qo‘yilgan. Ko‘rgazmaga tashrifchilar soni 13235 tani tashkil etgan bo‘lib, shundan yosh bolalar soni 6505 tani tashkil etgan. Ular uchun 350 dan ortiq ekskursiya matni tashkil etilgan¹.

Suratlar galereyasining faoliyati to‘g‘risida bir necha marotaba “Sirdaryo haqiqati” gazetasida yoritib borilgan. Har yili muntazam ravishda turli mavzularga doir ko‘rgazmalar tashkil qilingan, bular xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan “Mehnatkashlar sharafiga”, “Tasviriy san‘at”, “Bizning o‘lka” kabi nomlar bilan ko‘rgazmalar o‘tkazilgan. Har bir ko‘rgazma uchun maxsus ekskursiya matni yoshga qarab tashkil etilgan. “Tinchlik uchun” nomli ko‘rgazmada 35 dan ortiq rangtasvir asarlari joy olgan bo‘lib, ikki mingdan ortiq tashrifchilar

¹ Ўзбекистон Миллий архиви. 2296-жамғарма, 17-рўйхат, 39-йиғма жилд, Сирдарё вилояти суръатлар галереясида 1986 йил олиб борилган ишлар ҳисоботи. 18 вароқ.

uchun yuzdan ortiq ekskursiyalar tashkil etilgani ta'kidlab o'tilgan. 1987-yilda galereya rahbari T.Asilbekov bo'lgan².

“Tabiat va rassom” nomli ko'rgazma 40 dan ortiq asarlar, 100 dan ortiq ekskursiya matni. “Dunyo rassomlar nigohida” 50 dan ortiq rangtasvir asarlari joy olgan. Yil hisobi bilan 220 dan ortiq asarlar ko'rgazmaga qo'yilgan bo'lib, 10 mingdan ortiq tashrifchilar ko'rgazmaga tashrif buyurgan, ulardan 7 ming tasi katta yoshlilar, 3 mingdan ortig'i esa yosh bolalardan tashkil topgan. 340 ekskursiya matni tashkil etilgan³.

1990–1999-yillar oralig'ida Sirdaryo suratlar galereyasi faoliyatida ma'lum darajada turg'unlik kuzatilib, bu davrda fondni boyitish deyarli amalga oshirilmagan, ya'ni yangi rangtasvir asarlari sotib olinmagan. Shunga qaramay, galereyada tashkiliy faoliyat to'xtab qolmagan bo'lib, turli ko'rgazmalar va ekskursiyalar muntazam ravishda tashkil etib borilgan. 2000-yilda ham fond ishlarida sezilarli o'zgarish kuzatilmay, yangi asarlar qabul qilinmagan. 2002-yilga kelib esa mahalliy byudjetdan mablag' ajratilmaganligi sababli galereya fondi yana boyitilmagan, biroq mavjud fond asosida faoliyat davom ettirilgan. Jumladan, kirim daftarida 1981-yildan boshlab to'plangan jami 81 ta rangtasvir asari qayd etilgan. Shu yili galereyada 20 ta ko'rgazma, shundan 5 tasi ko'chma ko'rgazma sifatida tashkil etilgan, 280 ta ekskursiya o'tkazilgan bo'lib, ular tarkibida 140 ta tanishuv, 60 ta mavzuviy va 80 ta o'quv ekskursiyalari mavjud bo'lgan, shuningdek 6 ta ma'ruza tashkil etilgan. Natijada yil davomida galereyaga 2670 nafar tashrifchi jalb etilgan.

2004–2005-yillar davomida Sirdaryo viloyati suratlar galereyasi faoliyati sezilarli darajada rivojlandi. 2004-yilda galereya ko'rgazmalariga 155 mingdan ortiq tomoshabin tashrif buyurib, ular orasida Amerika, Buyuk Britaniya, Turkiya, Italiya, Rossiya va Moldaviya kabi davlatlardan kelgan mehmonlar ham bo'ldi, shu bilan birga 25 ta shartnoma tuzilib, Mustaqillikning 13 yilligiga bag'ishlangan kataloglar nashr etildi. 2005-yilga kelib esa galereya fondidagi rangtasvir asarlari soni 84 taga yetdi, 31 ta fond kartochkasi yuritildi hamda rassom Anorqul Boybekovning 4 ta asari xarid qilindi; yil davomida 20 ta ko'rgazma tashkil etilib, 500 ta ekskursiya, 4 ta ko'rik-tanlov va 2000 dan ortiq qatnovlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan qabul qilingan “O'zbekiston muzey va galereyalar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida”gi farmon hamda madaniyat sohasiga oid boshqa hujjatlar muzeylar va galereyalar faoliyatini rivojlantirish, milliy ma'naviy va badiiy merosga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shu asosda Sirdaryo viloyati Rasmlar galereyasi ham bosqichma-bosqich rivojlanib bordi. Galereya O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining 1981-yildagi 392-P qaroriga muvofiq Guliston shahridagi “Yashil teatr” binosida tashkil etilgan bo'lib, 2003-yil 29-mart kuni A.Navoiy nomidagi viloyat kutubxonasi va “Ma'naviyat va ma'rifat” markazi joylashgan yangi binoga ko'chirildi.

2007-yilga kelib galereya fondida Zokir Inog'omov, Ilya Rubin, Ivan Enin, Anorbek Boybekov va Ro'zi Choriyev kabi rassomlarning 116 dan ortiq rangtasvir asarlari saqlangan. Fond kirim daftarida esa 1981-yildan buyon jamlangan 80 ta asar qayd etilgan. Galereya fondini boyitishda sovg'a va xaridlar muhim o'rin tutgan: xususan, 2003-yilda akademik Ro'zi Choriyev tomonidan 24 ta asar hadya etilgan, 2005-yilda rassom Anorbek Boybekov kolleksiyasidan 4 ta asar xarid qilingan, 2006-yilda esa Madaniyat vazirligi tomonidan 1 ta hamda Abduvali Nurtojiyev tomonidan 7 ta asar sovg'a qilingan. Shunga qaramay, galereyada noyob yoki alohida muhofazaga muhtoj eksponatlar mavjud emasligi qayd etilgan⁴.

² Ўзбекистон Миллий архиви. 2296-жамғарма, 17-рўйхат, 437-йиғма жилд, Сирдарё вилояти суръатлар галереясида 1987 йил олиб борилган ишлар ҳисоботи.

³ Ўзбекистон Миллий архиви. 2296-жамғарма, 17-рўйхат, 482-йиғма жилд, Сирдарё вилояти суръатлар галереясида 1988 йил олиб борилган ишлар ҳисоботи.

⁴ F.N.Turgunova. Guliston shahar suratlar galereyasi faoliyati. “Badiiy ta'lim va pedagogika” ilmiy jurnali. – Toshkent, 2025. – №1. 92-96 b.

Ilmiy fond ishlari kirim kitobi va ilmiy inventar daftarida aks ettirilib, jami 116 ta rangtasvir asari va jihozlar ro'yxatga olingan, biroq jihozlarga oid ma'lumotlar to'liq yuritilmagan. 2007-yilda ilmiy xodimlar tomonidan barcha asarlar uchun ilmiy tavsif kartochkalari tuzilgan. Shu yili galereyada va undan tashqarida jami 40 ta ko'rgazma tashkil etilib, ularning asosiy qismi fond materiallari asosida o'tkazilgan, shuningdek, 800 ta ekskursiya (500 ta tanishuv va 300 ta o'quv ekskursiyasi) amalga oshirilgan. Galereya binosining ko'rgazma maydoni 400 kvadrat metrni, fond saqlash xonasi esa 100 kvadrat metrni tashkil etgan.

2009-yilga kelib galereya faoliyatida keskin o'zgarishlar kuzatilmagan bo'lsa-da, madaniy-ma'rifiy ishlar izchil davom ettirilgan. Jumladan, yil davomida jami 75 ta ko'rgazma (50 tasi fond asosida, 25 tasi ko'chma shaklda) tashkil etilgan, 1600 ta ekskursiya o'tkazilgan bo'lib, ulardan 1200 tasi tanishuv va 400 tasi o'quv ekskursiyalaridan iborat bo'lgan. Bu esa galereyaning hududiy madaniy hayotdagi o'rni va ahamiyati saqlanib qolganini ko'rsatadi.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda Sirdaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyida saqlanayotgan rangtasvir kolleksiyasining asosiy qismi aynan sobiq Sirdaryo viloyati suratlar galereyasi fondi negizida shakllangan. Turli yillarda galereya tomonidan yig'ilgan, xarid qilingan hamda rassomlar tomonidan sovg'a qilingan asarlar keyinchalik muzey fondiga o'tkazilib, hozirgi rangtasvir to'plamining poydevorini tashkil etgan. Shunday qilib, mazkur kolleksiya hududiy tasviriy san'at taraqqiyotining muhim bosqichlarini aks ettiruvchi, tarixiy va badiiy jihatdan qimmatli meros sifatida bugungi kunda muzey tarkibida saqlanib va ilmiy jihatdan o'rganilmoqda.

Adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Milliy arxivi. 2296-jamg'arma, 17-ro'yxat, 39-yig'ma jild, Sirdaryo viloyati sur'atlar galereyasida 1986 yil olib borilgan ishlar hisoboti. 18 varoq.
2. O'zbekiston Milliy arxivi. 2296-jamg'arma, 17-ro'yxat, 437-yig'ma jild, Sirdaryo viloyati sur'atlar galereyasida 1987 yil olib borilgan ishlar hisoboti.
3. O'zbekiston Milliy arxivi. 2296-jamg'arma, 17-ro'yxat, 482-yig'ma jild, Sirdaryo viloyati sur'atlar galereyasida 1988 yil olib borilgan ishlar hisoboti.
4. F.N.Turgunova. Guliston shahar suratlar galereyasi faoliyati. "Badiiy ta'lim va pedagogika" ilmiy jurnali. – Toshkent, 2025.– №1. 92-96 b.